Getis va Ord lokal statistikalari nazariyasini rivojlantirdi [6]. Ularning G statistikasi hududiy "issiq" va "sovuq" nuqtalarni (hot spots va cold spots) aniqlashga mo'ljallangan bo'lib, iqtisodiy geografiyada keng qo'llanilmoqda. Anselin 1995-yilda lokal Moran indeksini (LISA — Local Indicator of Spatial Association) ishlab chiqdi va uning yordamida global klasterlanishni mahalliy darajada tahlil qilish imkoniyatini ko'rsatdi.

Luc Anselinning 1988-yilda nashr etilgan "Spatial Econometrics: Methods and Models" monografiyasi [2] ushbu sohada asosiy nazariy manbalardan biri bo'lib, unda fazoviy og'irliklar matritsasi (W), fazoviy

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>.



avtoregressiv (SAR) modeli hamda fazoviy xatolar (SEM) modeli yagona tizimda asoslab berilgan. Ushbu asar keyingi o'ttiz yil davomida mintaqaviy iqtisodiyot tadqiqotlarida eng ko'p iqtibos keltirilgan manbalardan biri sifatida e'tirof etiladi.

LeSage va Pace [3] SDM (Spatial Durbin Model) modeli nafaqat xatolar, balki kechiktirilgan regressorlardan kelib chiqadigan noto'g'ri spetsifikatsiya muammolarini ham qamrab olishini isbotladilar. Shuningdek, ular fazoviy modellarda to'g'ridan-to'g'ri, bilvosita va umumiy ta'sirlarni (direct, indirect, total impacts) ajratib olishning riyoziy asoslarini ishlab chiqdi. Bu yondashuv iqtisodiy spillover effektlarini aniqlashda muhim metodologik yutuq bo'ldi.

Elhorst [4] o'zining "Spatial Econometrics: From Cross-Sectional Data to Spatial Panels" asarida panel ma'lumotlar uchun fazoviy modellarni keng qamrovda tahlil qildi. Sabit effektlili (fixed effects) va tasodifiy effektlili (random effects) modellar, ularni Hausman testi yordamida tanlash hamda maksimal ehtimollik usuli (MLE — Maximum Likelihood Estimation) asosida baholash tartibi batafsil yoritilgan. Ushbu yondashuv viloyat darajasidagi panel ma'lumotlar bilan ishlovchi tadqiqotchilar uchun muhim metodologik asos yaratadi.

Kelejian va Prucha [11] fazoviy modellar uchun umumlashtirilgan momentlar usuli (GMM) asosidagi estimatorini ishlab chiqdi va bu orqali instrumental o'zgaruvchilar (IV) asosida ham fazoviy parametrlarni izchil baholash imkoniyati yaratildi. Fingleton [12] ushbu yondashuvni fazoviy panellar uchun umumlashtirib, endogen fazoviy lag va fazoviy harakatlanuvchi o'rtacha xatolar mavjud bo'lgan holatlarda GMM-estimatorini qo'llashning amaliy mexanizmlarini ishlab chiqdi.

Fotheringham, Brunson va Charlton [9] geografik jihatdan og'irlikli regressiya (GWR) usulini nazariy jihatdan asoslab berdi. GWR global regressiya koeffitsientlari o'rniga har bir nuqta uchun lokal (fazoviy o'zgaruvchan) koeffitsientlarni hisoblaydi. Ushbu yondashuv iqtisodiy munosabatlarning fazoviy geterogenligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi va mintaqaviy tahlilda qo'shimcha analitik imkoniyat yaratadi.

Geostatistika mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida fransuz olimi Georges Matheron [8] tomonidan asos solingan. Kriging metodi dastlab mineral resurslarni baholashda qo'llanilgan bo'lsa-da, hozirgi kunda iqtisodiy intensivlik yuzalarini interpolatsiya qilishda, ayniqsa ma'lumotlar yetarli bo'lmagan hududlarda keng qo'llanilmoqda. Noel Cressie [7] o'zining fundamental asarida kriging nazariyasini umumlashtirib, uning optimal chiziqli noxolis baholash (BLUP — Best Linear Unbiased Predictor) xossasini asoslab berdi.

Pebesma [16] R dasturlash tilidagi gstat paketi yordamida variogramma tahlili va kriging interpolatsiyasini amalga oshirish imkoniyatlarini ko'rsatdi. Ushbu yondashuvning amaliy ahamiyati shundaki, ochiq kodli dasturiy vositalar yordamida geostatistik tahlillarni maxsus ixtisoslashgan dasturlarsiz ham bajarish mumkinligi isbotlandi. Fischer va Getis [13] esa iqtisodiy va ijtimoiy fanlarda qo'llaniladigan fazoviy usullar bo'yicha keng qamrovli ilmiy qo'llanma taqdim etdi.

O'zbekiston mintaqaviy iqtisodiyoti masalalari so'nggi yillarda xalqaro tashkilotlar tomonidan ham faol o'rganilmoqda. Jahon bankining 2023-yilgi O'zbekiston iqtisodiy sharhida viloyatlar kesimida iqtisodiy ko'rsatkichlarning sezilarli farqlanishi qayd etilgan [19]. Osiyo taraqqiyot bankining (ADB) 2023-yilgi hamkorlik strategiyasida viloyatlararo infratuzilma imkoniyatlari va iqtisodiy salohiyat o'rtasidagi nomutanosibliklar muhim masala sifatida ko'rsatib o'tilgan [20].

Xalqaro valyuta jamg'armasining (IMF) 2023-yilgi IV-modda bo'yicha konsultatsiya hisobotida ham viloyatlararo iqtisodiy tafovutlar hamda ularning bandlik va daromad taqsimotiga ta'siri tahlil qilingan [21]. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD) hisobotlarida Markaziy Osiyo, xususan O'zbekistonning chegara hududlari uchun investitsiya va savdo-tranzit imkoniyatlari alohida ko'rib chiqilgan [23].

OECDning mintaqaviy rivojlanish bo'yicha panoramasida iqtisodiy rivojlangan va nisbatan sust rivojlangan hududlar o'rtasidagi tafovutning kengayib borayotganligi qayd etilgan [24]. Ushbu global tendensiya O'zbekistonning chegara va tog'li hududlari uchun ham dolzarb bo'lib, fazoviy omillarni hisobga oluvchi metodologiyalarning ahamiyatini oshiradi.

PySAL (Python Spatial Analysis Library) [14] hamda R dasturlash tilidagi spdep, spatialreg va boshqa paketlar [15], [17] fazoviy ekonometrik hisob-kitoblarni amaliy jihatdan bajarishning zamonaviy vositalari hisoblanadi. Ushbu ochiq manbali dasturiy vositalar tadqiqot natijalarining takrorlanuvchanligi (reproducibility) va tekshiriluvchanligini (verifiability) ta'minlaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Fazoviy ekonometrik tahlilning markaziy elementi  $W$  — fazoviy og'irlik matritsasi hisoblanadi.  $n$  ta mintaqaga uchun  $W(n \times n)$  o'lchamli matritsa bo'lib, uning  $i$ -satri,  $j$ -ustun elementi  $w_{ij}$  mintaqaga  $i$  va mintaqaga  $j$  o'rtasidagi fazoviy munosabat kuchini ifodalaydi. Odatda diagonal elementlar nolga teng bo'ladi:

$$w_{ii} = 0$$



Matritsa satrlar bo'yicha normalashtiriladi, ya'ni har bir satr elementlari yig'indisi 1 ga teng bo'ladi:

$$\sum_j w_{ij} = 1$$

W matritsasini spetsifikatsiya qilishning asosiy usullari quyidagilar:

Birinchisi - qo'shnilik matritsasi (contiguity matrix). Agar i va j mintaqalar umumiy chegara (Rook yoki Queen qoidasiga ko'ra) ga ega bo'lsa,

$$w_{ij} = \begin{cases} 1, & \text{agar qo'shni bo'lsa} \\ 0, & \text{aks holda} \end{cases}$$

Queen qoidasiga muvofiq, hududlar faqat tomon orqali emas, balki burchak orqali ham tutash bo'lsa qo'shni hisoblanadi.

Ikkinchi usul - masofa asosidagi og'irlik matritsasi:

$$w_{ij} = \frac{1}{d_{ij}^\alpha}$$

bu yerda  $d_{ij}$ - hududlar markazlari orasidagi masofa,  $\alpha$  esa masofa ta'sirining kamayish darajasini bildiradi. W matritsasini tanlash bo'yicha universal qoida mavjud emas. Tadqiqotchi iqtisodiy mazmun va model maqsadidan kelib chiqib tanlov qiladi. Amaliyotda bir nechta variantlarni solishtirish tavsiya etiladi.

Fazoviy avtokorrelyatsiya: Moran I va LISA

Fazoviy bog'liqlikni aniqlash uchun Global Moran I statistikasi qo'llaniladi:

$$I = \frac{n}{S_0} \cdot \frac{\sum_i \sum_j w_{ij} (x_i - \bar{x})(x_j - \bar{x})}{\sum_i (x_i - \bar{x})^2}$$

bu yerda  $n$ — kuzatuvlar soni,

$$S_0 = \sum_i \sum_j w_{ij}$$

$x_i, x_j$ — hudud qiymatlari,  $\bar{x}$ — o'rtacha qiymat.

Agar  $I > 0$  bo'lsa, o'xshash qiymatlar klasterlashgan;  $I < 0$  bo'lsa, qo'shni hududlar farqli qiymatlarga ega bo'ladi.

Lokal Moran I (LISA) har bir hududning klasterlashga hissasini ifodalaydi:

$$I_i = z_i \sum_j w_{ij} z_j$$

bu yerda

$$z_i = \frac{x_i - \bar{x}}{\sigma}$$

LISA natijasida hududlar quyidagicha tasniflanadi: YY (yuqori-yuqori), PP (past-past), YP va PY (fazoviy outlierlar).

Fazoviy avtoregressiv modellar: SAR, SEM, SDM

SAR modeli quyidagicha ifodalanadi:

$$y = \rho W y + X \beta + \varepsilon, \varepsilon \sim N(0, \sigma^2 I_n)$$

bu yerda  $y$ — bog'liq o'zgaruvchi,  $\rho$ — fazoviy lag koeffitsienti,  $X$ — mustaqil o'zgaruvchilar,  $\beta$ — parametrlar vektori.

Modelning log-ehtimollik funksiyasi:



$$\ln L(\rho, \beta, \sigma^2) = -\frac{n}{2} \ln(2\pi\sigma^2) + \ln |I_n - \rho W| - \frac{e'e}{2\sigma^2}$$

SEM modeli:

$$y = X\beta + \varepsilon$$

$$\varepsilon = \lambda W\varepsilon + u, u \sim N(0, \sigma^2 I_n)$$

bu yerda  $\lambda$  — xatolardagi fazoviy bog'liqlik koeffitsienti.

SDM modeli:

$$y = \rho W y + X\beta + WX\theta + \varepsilon, \varepsilon \sim N(0, \sigma^2 I_n)$$

bu yerda  $\theta$  — kechiktirilgan regressorlar koeffitsientlari.

Kriging interpolatsiyasi va variogramma tahlili

Kriging — fazoviy interpolatsiya usuli bo'lib, quyidagicha ifodalanadi:

$$\hat{Z}(s_0) = \sum_{i=1}^n \lambda_i Z(s_i)$$

bu yerda  $\hat{Z}(s_0)$  — baholangan qiymat,  $\lambda_i$  — og'irliklar.

Og'irliklar variogramma orqali aniqlanadi:

$$\gamma(h) = \frac{1}{2} E[(Z(s) - Z(s+h))^2]$$

Variogramma parametrlari: nugget, sill va range — fazoviy bog'liqlikni tavsiflaydi.

Model diagnostikasi va tanlash mezonlari

Model sifatini baholash uchun quyidagi mezonlar qo'llaniladi:

$$AIC = -2 \ln L + 2k$$

$$BIC = -2 \ln L + k \ln n$$

Mazkur mezonlar modelning mosligi va murakkablik darajasini kompleks baholash imkonini beradi. Moran testi qoldiqlarda fazoviy bog'liqlikning saqlanib qolgan-qolmaganligini aniqlashga xizmat qiladi. Tadqiqotning metodologik tartibi izchil ketma-ketlikda amalga oshirilib, dastlab OLS modeli baholanadi, so'ngra LM testlari yordamida fazoviy bog'liqlik mavjudligi tekshiriladi, natijalarga ko'ra SAR yoki SEM modeli tanlanadi, keyinchalik ushbu modellar SDM bilan qiyosiy tahlil qilinadi, natijalar GWR yondashuvi orqali qo'shimcha tekshiriladi hamda yakuniy bosqichda kriging usuli yordamida fazoviy interpolatsiya amalga oshiriladi.


## TAHLIL VA NATIJALAR

Surxondaryo viloyatining iqtisodiy makroprofilini o'rganish shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, viloyat 13 ta tuman va Termiz shahrini o'z ichiga oladi [18]. Viloyat maydoni qariyb 20,800 km<sup>2</sup> ni tashkil etib, mamlakatning yirik hududlaridan biri hisoblanadi. Hudud iqtisodiyoti tarkibida qishloq xo'jaligi (paxta, don, sabzavot yetishtirish), tog'-kon sanoati (tabiiy gaz va neft qazib olish), qurilish materiallari ishlab chiqarish hamda tranzit-logistika xizmatlari muhim o'rin egallaydi. Termiz shahrining Afg'oniston bilan Xayraton ko'prigi orqali bog'langan savdo-transport yo'nalishi viloyatning geopolitik va iqtisodiy ahamiyatini yanada oshiradi [19], [20].

Jahon bankining 2023-yilgi O'zbekiston iqtisodiy sharhi [19] hamda Osiyo taraqqiyot bankining 2023-yilgi hujjatlariga [20] ko'ra, mamlakatda mintaqaviy iqtisodiy tafovutlar masalasi hanuz dolzarb bo'lib qolmoqda. Xususan, Surxondaryo kabi chegara hududlarida infratuzilma cheklolari, iqlim sharoitining murakkabligi va iqtisodiy diversifikatsiya darajasining nisbatan pastligi sharoitida an'anaviy OLS modellari tuman darajasidagi iqtisodiy dinamikani to'liq aks ettira olmaydi. Shu bilan birga, qo'shni tumanlar o'rtasidagi qishloq xo'jaligi kooperatsiyasi, suv resurslaridan birgalikda foydalanish va umumiy bozorlar mavjudligi fazoviy avtokorrelyatsiyaning real iqtisodiy asoslarini shakllantiradi.

Xalqaro valyuta jamg'armasining (IMF) 2023-yilgi konsultatsiya hisobotida [21] O'zbekistonda mahalliy boshqaruv organlari va markaziy hokimiyat o'rtasidagi byudjet taqsimoti muvozanati masalasi viloyatlar iqtisodiy faolligi bilan uzviy bog'liq holda muhim yo'nalish sifatida qayd etilgan. Ushbu nuqtai nazardan qaraganda, chegara viloyatlarining moliyaviy-iqtisodiy imkoniyatlarini yanada rivojlantirish va samarali boshqarish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Maqolada taklif etilayotgan integratsiyalashgan metodologik doira konseptual jihatdan tizimli yondashuvga asoslanadi. Xususan, 1-rasmda ma'lumotlar bazasidan boshlab siyosiy tavsiyalarni shakllantirishgacha bo'lgan modellashtirish jarayoni, fazoviy og'irliklar matritsasining markaziy o'rni hamda barcha bosqichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik izchil va tizimli tarzda aks ettirilgan.



1-rasm. Fazoviy Ekonometrik va Geostatistik Modellashtirish Konseptual Doirasi<sup>2</sup>

1-rasmda taklif etilgan metodologik doiraning asosiy mantiqiy zanjiri quyidagicha izohlanadi: dastlabki bosqichda rasmiy statistik ma'lumotlar (Stat.uz [18], World Bank [19], ADB [20]) to'planadi va ular asosida fazoviy og'irliklar matritsasi (W) shakllantiriladi. Keyingi bosqichda Moran I va LISA testlari yordamida fazoviy avtokorrelatsiyaning mavjudligi tekshiriladi. Shundan so'ng LM testlari natijalariga asoslanib optimal model (SAR, SEM yoki SDM) tanlanadi. Navbatdagi bosqichda kriging interpolyatsiyasi qo'llanilib, GWR yondashuvi orqali regressiya koeffitsientlarining fazoviy o'zgaruvchanligi baholanadi. Yakuniy bosqichda model validatsiyasi AIC, BIC mezonlari hamda qoldiqlarda Moran testi orqali amalga oshiriladi va olingan natijalar spillover effektlarini baholash, mintaqaviy konvergensiya tahlilini olib borish hamda amaliy siyosiy tavsiyalar ishlab chiqish ko'rinishida taqdim etiladi.

Surxondaryo viloyatining fazoviy tuzilmasini hisobga olgan holda, viloyat tarkibiga kiruvchi 13 ta tuman (Oltinsoy, Denov, Qumqo'rg'on, Muzrabot, Sherobod, Sho'rchi, Uzun, Termiz tumani, Jarqo'rg'on, Boysun, Sariosiyo, Qiziriq, Angor) hamda Termiz shahri birgalikda 14 ta fazoviy birlikni tashkil etadi. Ushbu birliklar uchun Queen qoidasiga muvofiq qo'shnilik matritsasi tuzilganda, matritsaning o'rtacha qator yig'indisi taxminan 2.5 qo'shniga teng bo'lib, bu hududning tog'li va tekislik qismlarining aralash relyefga ega ekanligini aks ettiradi. Masofaga asoslangan alternativ matritsa holatida esa Termiz shahridan 100 km radius ichida joylashgan tumanlar — xususan Sho'rchi, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on va Denov — nisbatan yuqori og'irlikka ega bo'ladi. Boysun va Sariosiyo tumanlarining tog'li hududda joylashganligi sababli transport masofalari boshqa hududlarga nisbatan uzoqroq bo'lib, bu holat matritsa tuzilishida o'ziga xos fazoviy differensiyani yuzaga keltiradi [3], [13].

Amaliy tadqiqot doirasida asosiy nazariy masala shundan iboratki, Surxondaryo viloyati tumanlari o'rtasida iqtisodiy faollik, masalan, aholi jon boshiga sanoat ishlab chiqarish hajmi bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli fazoviy klasterlanish mavjudmi yoki yo'q. Moran I testining nol gipotezasi — ya'ni fazoviy tasodifiy taqsimot mavjudligi — rad etilgan taqdirda, keyingi bosqichlarda SAR yoki SEM modellaridan foydalanish zarurati ilmiy jihatdan asoslanadi [5], [10].

Mazkur tadqiqotning keyingi bosqichida SAR, SEM va SDM modellarining nazariy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Xususan, 1-jadvalda ushbu uch modelning asosiy farqlovchi jihatlari tizimli ravishda yoritilib, ularning qo'llanish shartlari, afzalliklari va cheklovlari ilmiy asosda umumlashtiriladi.

<sup>2</sup> Manbalar asosida muallif ishlamasi.

1-jadval. SAR, SEM va SDM modellarining qiyosiy tavsifi<sup>3</sup>

Mezon	SAR modeli	SEM modeli	SDM modeli
Fazoviy lag	Bog'liq o'zgaruvchi (Wy)	Yo'q	Wy va WX ikkisi ham
Xatolar korrelyatsiyasi	Yo'q ( $\varepsilon \sim iid$ )	Ha ( $\varepsilon = \lambda W\varepsilon + u$ )	Yo'q ( $\varepsilon \sim iid$ )
Spillover effekti	Bilvosita (endogen)	Yo'q	To'g'ridan-to'g'ri va bilvosita
Baholash usuli	MLE, GMM	MLE, GMM	MLE
Qo'llash sharti	LM-lag ahamiyatli	LM-error ahamiyatli	Ikkalasi ham yoki noaniq
Iqtisodiy talqin	Iqtisodiy ta'sirlarning tarqalishi (spillover)	Kuzatilmagan fazoviy omillar	Eng to'liq fazoviy bog'liqlik

1-jadvalda keltirilganidek, SDM modeli umumlashgan yondashuv sifatida SAR va SEM modellarini o'z ichiga oladi. Biroq bu holat SDM modelini har doim ustun yoki afzal deb talqin qilishni anglatmaydi, chunki kichik hajmdagi tanlanma (masalan, 14 ta tuman kesimida) sharoitida modelning ortiqcha parametrlanishi (over-parameterization) muammosi yuzaga kelishi mumkin. Shu bois bunday holatlarda LeSage va Pace (2009) [3] tomonidan tavsiya etilgan parametrli cheklovlardan (bayesian yoki klassik yondashuvlar asosida) foydalanish orqali SDM modelini soddalashtirib, SAR yoki SEM ko'rinishiga keltirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Surxondaryo viloyati tumanlari uchun kriging interpolatsiyasini amaliy qo'llash izchil metodologik bosqichlar asosida amalga oshiriladi. Dastlab empirik variogramma hisoblanib, bunda tumanlar juftligi orasidagi masofa va iqtisodiy ko'rsatkichlar farqining dispersiyasi aniqlanadi. Keyingi bosqichda variogramma buluti (variogram cloud) modellashtirilib, odatda sferik (spherical), eksponensial (exponential) yoki Gauss (Gaussian) modellari sinovdan o'tkaziladi. Eng yuqori moslikni ta'minlovchi model tanlangach, kriging tizimi yechiladi va natijalar xarita ko'rinishida vizual tarzda ifodalanadi [7], [8], [16].

Geografik jihatdan og'irlikli regressiya (GWR) uchun muhim metodologik masalalardan biri optimal bandwidth (ta'sir doirasi kengligi) ni tanlash hisoblanadi. Agar bandwidth juda kichik bo'lsa, model haddan tashqari lokal xususiyat kasb etib, tasodifiy tebranishlarni ham o'zlashtirib yuboradi (overfitting); aksincha, bandwidth juda katta bo'lsa, model global regressiyaga yaqinlashib, fazoviy geterogenlikni yetarli darajada aks ettira olmaydi. Shu sababli optimal bandwidth odatda cross-validation (CV) yoki AIC mezonini minimallashtirish orqali aniqlanadi [9]. Surxondaryo kabi hududiy jihatdan o'rta o'lchamdagi viloyatlar uchun adaptive bandwidth (har bir nuqta atrofida bir xil sondagi qo'shni kuzatuvlar asosida) yondashuvi fixed bandwidth ga nisbatan ko'proq mos kelishi mumkin.

Kriging interpolatsiyasi va GWR usullarining funksional vazifalari bir-biridan farq qiladi: kriging asosan kuzatilmagan hududlar uchun qiymatlarni prognoz qilishga mo'ljallangan bo'lsa, GWR regressiya parametrlarining fazoviy o'zgaruvchanligini aniqlashga xizmat qiladi. Shu bois iqtisodiy tahlilning to'liq metodologik siklini ta'minlashda ushbu ikki yondashuv o'zaro to'ldiruvchi ahamiyatga ega bo'lib, kriging iqtisodiy intensivlik yuzalarini modellashtirishga, GWR esa iqtisodiy munosabatlarning hududiy tafovutlarini chuqurroq tushuntirishga xizmat qiladi [13], [17].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada mintaqaviy iqtisodiy o'sishni baholashda ekonometrik va geostatistik usullarning integratsiyalashgan metodologik doirasi nazariy jihatdan asoslab berildi hamda Surxondaryo viloyati misolida uning konseptual qo'llash yo'llari yoritildi. Olib borilgan tahlillar asosida bir qator muhim nazariy xulosalarga kelish mumkin.

Avvalo, fazoviy avtokorrelyatsiya mintaqaviy iqtisodiy ma'lumotlarda statistik jihatdan qonuniy hodisa sifatida namoyon bo'ladi va uni e'tiborsiz qoldirish parametr baholarining og'ishiga (bias) hamda standart xatolarning nomuvofiqligiga (inconsistency) olib kelishi mumkin. Shu sababli tuman darajasidagi iqtisodiy tahlilni OLS modeli asosida boshlash mumkin bo'lsa-da, keyingi bosqichda LM testlari orqali fazoviy bog'liqlikni tekshirish zarur hisoblanadi. Moran I testidan foydalanish esa O'zbekiston viloyatlari kesimidagi tahlillarni xalqaro metodologik standartlarga yaqinlashtirish imkonini beradi.

Shuningdek, SAR, SEM va SDM modellar to'plami iqtisodiy masalaning mohiyatidan kelib chiqib tanlanishi lozim. Surxondaryo kabi chegara mintaqalarida tumanlararo iqtisodiy integratsiya va tranzit ta'sirlarni hisobga olgan holda SDM modelining afzalligi nazariy jihatdan asosli ko'rinadi. Biroq 14 ta tuman kesimidagi nisbatan cheklangan kuzatuvlar soni sharoitida SAR modelining nisbatan soddaroq va tejamkor spetsifikatsiyasidan boshlash maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin. Agar yillik kesimdagi panel ma'lumotlar mavjud bo'lsa, Elhorst [4] tomonidan taklif etilgan fazoviy panel yondashuvi yanada samarali natijalar berishi mumkin.

Bundan tashqari, kriging interpolatsiyasi va variogramma tahlili Surxondaryo viloyati tumanlarining iqtisodiy intensivlik xaritasini tuzishda metodologik jihatdan asosli yondashuv hisoblanadi. Viloyat hududining murakkab

<sup>3</sup> Manba: Anselin (1988) [2], LeSage va Pace (2009) [3], Elhorst (2014) [4] asosida muallif ishlanmasi.



relyefi, ya'ni tekislikdagi Termiz va Sherobod tumanlari bilan tog'li Boysun va Sariosiyo tumanlari o'rtasidagi sezilarli tafovut fazoviy kovaryatsiya tuzilmasining murakkablashuviga olib keladi. Shu bois variogramma modelini tanlash jarayonida ehtiyotkorlik va ilmiy asoslangan yondashuv talab etiladi.

Geografik jihatdan og'irlikli regressiya (GWR) modeli esa regressiya koeffitsiyentlarining fazoviy o'zgaruvchanligini aniqlash imkonini beradi. Bu esa mintaqaviy siyosatni yagona yondashuv asosida emas, balki hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda tabaqalashtirilgan tarzda shakllantirish uchun muhim metodologik asos yaratadi. Masalan, ayrim tumanlarda infratuzilma investitsiyalarining iqtisodiy o'sishga ta'siri boshqa hududlarga nisbatan sezilarli darajada farq qilishi mumkin va bunday farqlarni GWR modeli orqali miqdoriy baholash mumkin [9].

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi [22] doirasida mintaqaviy rivojlanish siyosatini baholash uchun taklif etilayotgan integratsiyalashgan metodologik yondashuv bir qator amaliy imkoniyatlarni yaratadi. Xususan, davlat investitsiyalarining fazoviy multiplikatsiya ta'sirini aniqlash, hududiy klasterlar va "o'sish qutblari"ni belgilash, qo'shni tumanlar o'rtasidagi iqtisodiy spillover yo'nalishlarini aniqlik bilan o'lchash hamda geostatistik xaritalar asosida qaror qabul qilish jarayonlarini vizuallashtirish imkoniyati kengayadi.

Keyingi ilmiy tadqiqot yo'nalishlari sifatida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi [18] ma'lumotlari asosida 2015-2023-yillarni qamrab oluvchi panel ma'lumotlar bazasini shakllantirish va uni fazoviy dinamik modellar asosida tahlil qilish, Python muhitidagi PyKrige hamda R dasturidagi gstat paketlari yordamida kriging interpolyatsiyasini amaliyotga joriy etish, SDM modelining Wald va LR testlari orqali SAR yoki SEM modellariga qisqarishini empirik jihatdan tekshirish, shuningdek PySAL [14] va spatialreg [15] paketlari asosida LISA xaritalarini tuman darajasida tuzish hamda ular asosida hududiy rivojlanish ustuvor yo'nalishlarini aniqlash tavsiya etiladi.

Umuman olganda, fazoviy ekonometrika va geostatistikaning integratsiyalashgan qo'llanilishi O'zbekiston mintaqaviy iqtisodiyot tadqiqotlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatiga ega. Surxondaryo viloyati o'zining chegara hududi maqomi, murakkab relyefi va iqtisodiy diversifikatsiya darajasi bilan mazkur metodologiyaning samaradorligini sinash uchun muhim tajriba maydoni sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada taklif etilgan konseptual yondashuv kelgusidagi empirik tadqiqotlar uchun mustahkam ilmiy-metodologik asos bo'lib xizmat qilishi kutiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tobler, W. R. (1970). A computer movie simulating urban growth in the Detroit region. *Economic Geography*, 46(sup1), 234-240. <https://doi.org/10.2307/143141>.
2. Anselin, L. (1988). *Spatial econometrics: Methods and models*. Dordrecht: Kluwer Academic Publishers. <https://link.springer.com/book/10.1007/978-94-015-7799-1>.
3. LeSage, J., & Pace, R. K. (2009). *Introduction to spatial econometrics*. CRC Press / Taylor & Francis. <https://doi.org/10.1201/9781420064254>
4. Elhorst, J. P. (2014). *Spatial econometrics: From cross-sectional data to spatial panels*. Springer. <https://link.springer.com/book/10.1007/978-3-642-40340-8>.
5. Moran, P. A. P. (1950). Notes on continuous stochastic phenomena. *Biometrika*, 37(1-2), 17-23. <https://doi.org/10.2307/2332142>.
6. Getis, A., & Ord, J. K. (1992). The analysis of spatial association by use of distance statistics. *Geographical Analysis*, 24(3), 189-206. <https://doi.org/10.1111/j.1538-4632.1992.tb00261.x>.
7. Cressie, N. A. C. (1993). *Statistics for spatial data (Revised ed.)*. New York: Wiley. <https://www.wiley.com/en-us/Statistics+for+Spatial+Data%2C+Revised+Edition-p-9780471002550>.
8. Matheron, G. (1963). Principles of geostatistics. *Economic Geology*, 58(8), 1246-1266. <https://doi.org/10.2113/gsecongeo.58.8.1246>.
9. Fotheringham, A. S., Brunsdon, C., & Charlton, M. (2002). *Geographically weighted regression: The analysis of spatially varying relationships*. Wiley. <https://www.wiley.com/en-gb/Geographically+Weighted+Regression-p-9780471496168>.
10. Cliff, A. D., & Ord, J. K. (1981). *Spatial processes: Models and applications*. London: Pion. <https://www.abebooks.com/9780850861068>.
11. Kelejian, H. H., & Prucha, I. R. (1999). A generalized moments estimator for the autoregressive parameter in a spatial model. *International Economic Review*, 40(2), 509-533. <https://doi.org/10.1111/1468-2354.00027>.
12. Fingleton, B. (2008). A generalized method of moments estimator for a spatial panel model with an endogenous spatial lag and spatial moving average errors. *Spatial Economic Analysis*, 3(1), 27-44. <https://doi.org/10.1080/17421770701774922>.
13. Fischer, M. M., & Getis, A. (Eds.). (2010). *Handbook of applied spatial analysis: Software tools, methods and applications*. Springer. <https://link.springer.com/book/10.1007/978-3-642-03647-7>.
14. Rey, S. J., & Anselin, L. (2010). PySAL: A Python library of spatial analytical methods. *Review of Regional Studies*, 37(1), 5-27. <https://journal.srsa.org/ojs/index.php/RRS/article/view/134>.
15. Bivand, R., & Piras, G. (2015). Comparing implementations of estimation methods for spatial econometrics. *Journal of Statistical Software*, 63(18), 1-36. <https://www.jstatsoft.org/article/view/v063i18>.
16. Pebesma, E. J. (2004). Multivariable geostatistics in S: The gstat package. *Computers & Geosciences*, 30(7), 683-691. <https://doi.org/10.1016/j.cageo.2004.03.012>.



17. Bivand, R. S., Pebesma, E., & Gomez-Rubio, V. (2013). Applied spatial data analysis with R (2nd ed.). Springer. <https://link.springer.com/book/10.1007/978-1-4614-7618-4>.
18. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2023). Surxondaryo viloyati ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari. Toshkent: Rasmiy statistik nashr. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/regional-statistics>.
19. World Bank. (2023). Uzbekistan country economic update: Navigating a challenging global environment. Washington, D.C.: World Bank Group. <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/uzbekistan-economic-update>.
20. Asian Development Bank. (2023). Uzbekistan: Country partnership strategy 2019-2023. Manila: ADB. <https://www.adb.org/documents/uzbekistan-country-partnership-strategy-2019-2023>.
21. International Monetary Fund. (2023). Uzbekistan: 2023 Article IV consultation — staff report. Washington, D.C.: IMF Country Report. <https://www.imf.org/en/Publications/CR/Issues/2023/08/10/Uzbekistan-2023-Article-IV-Consultation>.
22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-01-28-yildagi PF-60-son Farmoni. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>.
23. European Bank for Reconstruction and Development. (2022). Regional economic prospects: Central Asia and Caucasus. EBRD Publications. <https://www.ebrd.com/publications/regional-economic-prospects-central-asia>.
24. OECD. (2021). OECD regional outlook 2021: Addressing COVID-19 and moving to net zero greenhouse gas emissions. Paris: OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/a59d0921-en>.
25. LeSage, J. P. (1999). The theory and practice of spatial econometrics. University of Toledo Working Paper. <https://spatial-econometrics.com/html/wbook.pdf>.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2026. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>